BARQAROR RIVOJLANTIRISH DASTURLARI VOSITASIDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA ILG‘OR MAMLAKATLAR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH.

Zayniddinov Firdavs Faxriddin o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada kambag‘allikni qisqartirishda barqaror rivojlantirish dasturlarining o‘rni, ularning ijtimoiy va iqtisodiy samaradorligi hamda ilg‘or mamlakatlar tajribalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil etib,boshqa mamlakatlarda joriy etilgan shartli va shartsiz naqd pul transfertlari, ijtimoiy himoya siyosati, ta’lim hamda sog‘liqni saqlash sohalarini qo‘llab-quvvatlash dasturlari misolida kambag‘allikni kamaytirish mexanizmlari o‘rganilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) doirasida belgilangan “2030-yilgacha barcha shakllarda kambag‘allikka barham berish” vazifasining amalga oshirilish jarayoni yoritilgan. Kambag‘allikka qarshi kurashda milliy siyosatning izchilligi, jamiyat ishtiroki, hamda ekologik va iqtisodiy barqarorlik o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarurati asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs), kambag‘allikni qisqartirish, ijtimoiy himoya, naqd pul transfertlari, shartli naqd yordamlar, shartsiz naqd yordamlar, oziq-ovqat yordami, sog‘liqni saqlash subsidiyalari, ta’lim sifati, sog‘lomlashtirish siyosati, sog‘liqni saqlash tizimi, telemeditsina, bandlik va daromad, iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy adolat, ishtirokchi boshqaruv, mahalliy hamjamiyat ishtiroki, milliy siyosat, ekologik barqarorlik, inklyuziv rivojlanish, xalqaro tajriba, ijtimoiy barqarorlik, O‘zbekiston tajribasi.

Abstract. This article analyzes the role of sustainable development programs in poverty reduction, their social and economic effectiveness, and the possibilities of applying best practices from advanced countries. Using examples of conditional and unconditional cash transfer programs, social protection policies, and initiatives supporting education and healthcare implemented in other countries, the mechanisms for reducing poverty are examined. The process of implementing the task set within the framework of the United Nations Sustainable Development Goals (SDGs) — “ending poverty in all its forms everywhere by 2030” — is highlighted. The necessity of ensuring consistency in national policies, active public participation, and maintaining a balance between ecological and economic sustainability in the fight against poverty is substantiated.

Keywords: Sustainable Development Goals (SDGs), poverty reduction, social protection, cash transfers, conditional cash assistance, unconditional cash assistance, food aid, healthcare subsidies, quality of education, public health policy, healthcare system, telemedicine, employment and income, economic growth, social justice, participatory governance, local community participation, national

ISSN 3030-3907

policy, environmental sustainability, inclusive development, international experience, social sustainability, Uzbekistan's experience.

Аннотация. В данной статье проанализирована роль программ устойчивого развития в сокращении бедности, их социальная и экономическая эффективность, а также возможности использования передового опыта развитых стран. На примере условных и безусловных денежных трансфертов, политики социальной защиты, программ поддержки образования и здравоохранения, реализуемых в других странах, изучены механизмы снижения уровня бедности. Освещён процесс реализации задачи, определённой в рамках Целей устойчивого развития ООН (ЦУР), — «ликвидация бедности во всех её формах к 2030 году». Обоснована необходимость последовательности национальной политики, участия общества, а также сохранения баланса между экологической и экономической устойчивостью в борьбе с бедностью.

Ключевые слова: Цели устойчивого развития (ЦУР), сокращение бедности, социальная защита, денежные трансферты, условная денежная помощь, безусловная денежная помощь, продовольственная помощь, субсидии на здравоохранение, качество образования, политика общественного здравоохранения, система здравоохранения, телемедицина, занятость и доходы, экономический рост, социальная справедливость, партисипативное управление, участие местных сообществ, национальная политика, экологическая устойчивость, инклюзивное развитие, международный опыт, социальная устойчивость, опыт Узбекистана.

Kirish

Bugungi kunda kambag‘allik tushunchasi keng va hamma davlatlar uchun muammoli bo‘lib turgan caselardan biri shuning uchun avvalo uning nim ava qanday mezonlar asosida baholanishini ko‘rib chiqsak. O‘zbekistonda “kambag‘al” yoki “kam ta’minlangan” deb hisoblanish mezonlari asosan milliy kambag‘allik chizig‘i (national poverty line) bilan belgilanadi. Ya’ni, bir kishining yoki oilaning kundalik daromadi yoki oylik daromadi mamlakat belgilagan minimal yashash miqdoridan past bo‘lsa, u kambag‘al hisoblanadi. O‘zbekiston uchun ilg‘or xorijiy tajribalarni moslashtirish jarayonida ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish, naqd pul transfertlari mexanizmini takomillashtirish, shuningdek ta’lim va sog‘liqni saqlash infratuzilmasini mustahkamlash yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari kambag‘allikni qisqartirishda kompleks yondashuv, raqamli boshqaruv tizimlari hamda inklyuziv iqtisodiy siyosatning ustuvor ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi.

Asosiy tushunchalar: Milliy kambag‘allik chizig‘i – har bir mamlakatda yashash uchun minimal zarur mablag‘ni belgilovchi ko‘rsatkich. O‘zbekiston

ISSN 3030-3907

uchun bu ko‘rsatkich har yili yangilanadi va o‘rtacha iste’mol xarajatlariga asoslanadi.

- Daromad yoki xarajatlar – oilaning oylik yoki yillik daromadi, shuningdek ularning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa zaruriy ehtiyojlar uchun qilgan xarajatlari hisobga olinadi.

- Kambag‘allikning boshqa ko‘rsatkichlari – ba’zan Sifatli kambag‘allik (multidimensional poverty) ham hisobga olinadi: ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy, suv va sanitariya sharoitlari kabi omillar. Masalan, Milliy Statistika Qo‘mitasining so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi 8,9% ni tashkil qilgan, ya’ni aholining bu qismi milliy kambag‘allik chizig‘i ostida yashamoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekiston kambag‘allikni qisqartirish sohasida sezilarli natijalarga erishdi. Milliy Statistika Qo‘mitasining Uy-joy byudjeti so‘rovi (HBS) ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda mamlakatdagi kambag‘allik darajasi 17% bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda u 8,9% ga tushgan. Ushbu pasayish qishloq va shahar hududlarida ijtimoiy va iqtisodiy siyosatning samarali amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha o‘zgarishlar asosan qishloq hududlarida sezilgan: 2021-yilda qishloq aholisi orasida har beshinchi kishi kambag‘al bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 9,2% ga tushgan. Shahar hududlarida esa kambag‘allik darajasi 13,9% dan 8,6% gacha kamaygan. Natijada, qishloq va shahar hududlari o‘rtasidagi farq 5,9 foizdan atigi 0,7 foizga kamayib, kambag‘allikning mintaqalar bo‘yicha teng taqsimlanishini ko‘rsatmoqda.[1] O‘zbekiston uchun ilg‘or xorijiy tajribalarni moslashtirish jarayonida ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish, naqd pul transfertlari mexanizmini takomillashtirish, shuningdek ta’lim va sog‘liqni saqlash infratuzilmasini mustahkamlash yo‘nalishlari bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Ushbu tendensiyalar shuni anglatadiki, mamlakatda kambag‘allikni kamaytirish siyosati samarali bo‘lib, ammo shahar hududlarida kambag‘allik bilan kurashish ham dolzarb masala sifatida qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, ilg‘or mamlakatlar tajribasini o‘rganish va ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali kambag‘allikni yanada qisqartirish imkoniyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

[1] https://stat.uz/uz/

ISSN 3030-3907



1-rasm. O‘zbekistondagi kambag‘allik darajasi hududlar kesimida.

[2]Eng ko‘p yordamga muhtoj oilalarni aniqlash jarayoni murakkab. Nazariy jihatdan, har bir oilaning jami daromadini soliq ma’lumotlari asosida hisoblab, uni oila a’zolari soniga bo‘lish va natijani milliy kambag‘allik chizig‘i bilan solishtirish kifoya qilardi. Shu tarzda, kambag‘allarni aniq aniqlash mumkin bo‘lgan.

Ammo amaliyotda bu usul ish bermaydi. Bunday yondashuv faqat aholining ko‘pchiligi rasmiy ish bilan band bo‘lgan va davlat tizimlariga to‘liq ulangan hollarda samarali.

O‘zbekistonda esa rasmiy bo‘lmagan ishlar keng tarqalgan — 2023-yilda ishchi kuchining taxminan 40% rasmiy bo‘lmagan sohalarda ishlagan. Ayollar orasida bu ko‘rsatkich 47%, qishloq xo‘jaligida esa 61% ni tashkil etadi. Shu sababli, faqat soliq ma’lumotlariga tayanib, kimga yordam kerakligini aniqlash juda qiyin. Ayniqsa, kambag‘allar ko‘pincha rasmiy bo‘lmagan ish bilan shug‘ullanishlari tufayli, ularni aniq belgilash yanada murakkablashadi.[3] Joriy yilda kambag‘alchilik ko‘rsatkichi sezilarli darajada pasaydi, bu esa mamlakat rahbarining jahon amaliyotini Ozbekistonga tadbiq etishi orqali amalga oshdi desak adashmagan bo‘lamiz. BMTning Barqaror Rivojlanish Dasturi 2030-yilgacha barcha shakllarda kambag‘allikka barham berish maqsadini belgilaydi va milliy siyosat hamda jamiyat ishtiroki bilan amalga oshiriladigan yechimlarni qo‘llab-quvvatlaydi. Shu tariqa, ijtimoiy himoya, moliyaviy transferlar va sifatli ta’lim-sog‘liqni saqlash infratuzilmasi orqali mamlakatda inklyuziv rivojlanish va kambag‘allikni samarali qisqartirish mumkin.[4]

[2] Muallif ishi
[3] https://stat.uz/uz/
[4] https://www.BMT.org/about-us/sustainability/

ISSN 3030-3907

Bunda: Ijtimoiy himoya tizimi – oilalarga yordam berish, zaif guruhlarni qo‘llab-quvvatlash. **Moliyaviy transferlar –** shartli va shartsiz naqd pul berish orqali daromad va turmush sifatini oshirish. **Ta’lim va sog‘liqni saqlash –** kelajakdagi daromadni oshirish va moliyaviy yukni kamaytirish. **Milliy siyosat va jamiyat ishtiroki –** barqaror va inklyuziv yechimlarni ta’minlash**.** Barqaror rivojlantirish dasturlari (SDGs) mamlakatlarda kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun asosiy ramka sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekistonda kambag‘allik darajasi so‘nggi yillarda sezilarli darajada kamaygan. 2021–2024 yillarda milliy kambag‘allik ko‘rsatkichlari 17% dan 8,9% gacha tushdi, bu qishloq va shahar hududlaridagi ijtimoiy va iqtisodiy siyosatning samarali amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Qishloq hududlarida kambag‘allik tezroq kamaygan bo‘lsa-da, shahar hududlarida ham ijtimoiy yordam va moliyaviy transferlar orqali daromad oshishi kuzatilmoqda. Kambag‘allikni aniqlashda rasmiy bo‘lmagan ishlarning yuqori foizi va ayollar hamda qishloq aholisi orasida bandlikning rasmiy tizimga ulanmaganligi muhim qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekiston Prezidenti tomonidan olib borilayotgan oqilona va barqaror siyosatlar mamlakatda kambag‘allikni qisqartirishda muhim rol o‘ynamoqda. Prezident tashabbuslari doirasida ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish, shartli va shartsiz naqd pul transferlarini kengaytirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash infratuzilmasini mustahkamlash orqali aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ilg‘or mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, shartli va shartsiz naqd pul transferlari, sifatli ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimi orqali kambag‘allikni samarali qisqartirish mumkin. Shu asosda, Prezident siyosati va milliy strategiyalar birgalikda O‘zbekistonni barqaror rivojlanish va inklyuziv iqtisodiy o‘sishga olib boruvchi yo‘ldan ketayotganini tasdiqlaydi**.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo‘mitasi. Uy-joy byudjeti so‘rovi (HBS) 2021–2024. Toshkent, 2024.
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Vazirligi. Milliy rivojlanish strategiyasi va barqaror iqtisodiy o‘sish bo‘yicha hisobotlar. Toshkent, 2023.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Farmonlar va qarorlar, ijtimoiy himoya va kambag‘allikni qisqartirish sohalari bo‘yicha, 2021–2024.
4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Sustainable Development **Goals Report 2023**. New York, United Nations, 2023.
5. F.R.Muradova, Z.R.Murodova, I.I.Hayitova, M.M.Nafasov Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari. O ‘quv qo ‘llanma, Buxoro, Sharq 2020
6. F.R.Muradova, Z.R.Murodova, I.I.Hayitova, M.M.Nafasov Ta`limda multimedia ilovalari O ‘quv qo ‘llanma, Buxoro, Sharq 2020

ISSN 3030-3907

7. Информационные технологии: учебник / З.Р.Муродова, Бухоро: «BUXORO NASHR» МЧЖ, 2023. - 350 с.
8. Kadirov M. Axborot texnologiyalari-1 qism. O ‘quv qo ‘llanma. T:Sano-standart-2018
9. T.F.Sohibov, N.A.Sharapova. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari (I qism). O ‘quv qo ‘llanma, Buxoro, Sharq 2024
10. Sh.X.Samiyeva, N.A.Sharapova. Dizayn va amaliy dasturlar. O ‘quv qo ‘llanma, Buxoro, Durdona. 2023
11. Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar/ U.Z.Narziyev O ‘quv qo ‘llanma, Buxoro, Sharq 2024
12. M.M.Nurullayev. Axborot texnologiyalari va jarayonlarini matematik modellashtirish. O‘quv qo‘llanma. Buxoro: “Umid” nashriyoti, 2023. – 186 b.
13. Soha obyektlarini loyihalash dasturlari / L.Gaffarov. darslik Buxoro, Durdona nashriyoti 2024
14. Qurilishda axborot texnologiyalari/ L.X.Gaffarov. o‘quv qo‘llanma, umid nashriyoti 2023

ISSN 3030-3907